O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ROSSIYANING BIRINCHI PREZIDENTI B. N. YELSIN
NOMIDAGI URAL FEDERAL UNIVERSITETI

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

# INSON FAROVONLIGINI O‘RGANISHDA FANLARARO YONDASHUV

**xalqaro ilmiy konferensiya materiallari**

## I QISM

**Toshkent – 2023**

**UOʻK 08**
**KBK 94**

**Mas’ul muharrir:**

**Muxamedov Gafurjon Isroilovich**
Kimyo fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston fan arbobi

**Tahrir hay’ati:**

O.D.Ziyadullayev, E.E.Simanyuk, J.E.Usarov, S.B. Malix, D.O.Ximmataliyev, T.N.Tixomirova, R.A.Ikromov, Serdar Serdar uglu, J.F.Ravshanov, A.A.Pecherkina, G.O.Ernazarova, D.E.Chernouxov, F.U.Qodirova, YU.V.Zapariy, N.X.Elmurzaeva, YU.E.Pyankova, SH.R.Samarova, A.P.Andropov, A.N.Rasulov, S.B.Qorayev, I.D.Qodirov, S.Gayupova, K.R.Mamadaliyev, A.S.Burnasov, N.J.Eshnayev, SH.E.Nurmamatov

Konferensiyaning maqsadi jamiyatda inson farovonligini oshirish muammolarini oʻrganish va bu yoʻlda izlanishlar iolib borayotgan tadqiqochilarga amaliy yordam berish, ularni birlashtirishdan iborat. Insonning hayotda yashash darajasining sifat jihatidan oʻsib borishi, raqamlashtirish jarayonlarining jamiyat, ijtimoiy guruhlar va shaxslarga ta'sirini oʻrganishga fanlararo yondashuvni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Toʻplamdan shaxs farovonligining psixologik, inson farovonligining demografik jihatlari, ijtimoiy-madaniy aspektlari, ta’lim inson farovonligining bosh omili ekanligi, mustaqil-ta'lim klasteri inson farovonligining asosi va raqamlashtirishning inson farovonligini ta’minlashdagi qulayliklari masalalariga bagʻishlangan maqolalar oʻrin olgan. Kitob soha mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavriat talabalari hamda keng oʻquvchilar ommasiga moʻljallangan.

Ilmiy toʻplam Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy Kengashining 2023 yil 27 sentyabrdagi 02-sonli qoʻshma yigʻilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan. Ilmiy toʻplam maqolalarida keltirilgan iqtibos va dalillar obyektivligi mualliflar zimmasida qoldiriladi.

*Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.*

*ISBN 978-9910-9966-6-5*

*© Zebo prints, 2023.*
*© Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

# SHAXS FAROVONLIGIGA SALOMATLIKNING PSIXOLOGIK TA’SIRI

**S.R.Mirzayeva**
*ChDPU “Psixologiya” kafedrasi dotsenti,*
*psixologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori*

***Annotatsiya:*** *Maqolada shaxs farovonligiga salomatlikning psixologik ta’siri yoritilgan. Bunda ruhiy salomatlik, salomatlikka boʻlgan munosabatning asosiy tarkibiy qismlari (kognitiv, xulq-atvoriy va hissiy) tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarning salomatlikka qadriyat sifatida munosabatlar darajalari aniqlangan va tahlil qilingan.*
***Kalit soʻzlar:*** *shaxs, farovonlik, psixologik aspektlari, salomatlik, ruhiy salomatlik, salomatlikka boʻlgan munosabat.*

Shaxsning salomatlikka boʻlgan munosabatining kognitiv, xulq-atvor va hissiy tarkibiy qismlari G.S.Nikiforovning fikricha, sogʻliqni saqlash yoki aksincha holatlarga moyillikdan iborat shaxsiy sifat tarzida koʻrib chiqilishi mumkin. Koʻpchilikda, salomatlikka e’tiborli boʻlish masalasida, jiddiy qarama-qarshiliklar yashiringan. Ilmiy dalillarga murojaat qilinmagan holda ham, sogʻliqning qadriyati ongimizda yetarli darajada yuqori. Biroq, sogʻliqni saqlashga (sogʻlom turmush tarzi) munosabatda, ta’sirchan, xulq-atvor tarkibiy qismining jiddiyligi sogʻliq toʻgʻrisida bilim hajmiga yoki uning zaiflashishiga hissiy reaksiyalarning kuchiga mutlaqo mos kelmaydi. Aksariyat odamlarning sogʻliqni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan faoliyati hissiy munosabat intensivligiga mos kelmaydi. Bu nafaqat sogʻlom odamlar uchun, balki allaqachon jiddiy kasalliklarga duchor boʻlganlar uchun ham xosdir [8; 240-284 bb].

Ayniqsa, sobiq sotsialistik mamlakatlar aholisining katta qismi uchun sogʻliq borasidagi javobgarlik hissi juda past. Ushbu mamlakatlardagi davlat tizimi va koʻplab ijtimoiy institutlar sezilarli oʻzgarishlarga uchragan boʻlishiga qaramay, koʻpchilikning ijtimoiy va individual ongi bozor iqtisodiyoti shakllangan davlatlar aholisining ongiga deyarli oʻxshamaydi. Odatiy turmush tarziga uy, uy hayvonlari, mashinalarga gʻamxoʻrlik qilish kirib keldi. Odamlar muntazam ravishda hammomga borish, dush qabul qilish, ertalab yuvinish, tishlarini yuvish bilan shugʻullanishga odatlangan, ammo ular oʻz ruhlari (qalblari) haqida qaygʻurishga odatlanmaganlar. Koʻpchiligimizda, ruhimizga (qalbimizga) gʻamxoʻrlik qilish odati endi shakllanmoqda.

Masalan, hozirgi jamiyatdagi ruhiy gigiena holati, jamiyat ongining ushbu muhim tarkibiy qismiga qaratilgan davlat siyosati va jamoatchilik ta’sirining puxta oʻylangan va ilmiy asoslangan strategiyasi bilan tavsiflanadi. Gigienik, shu jumladan, psixo-gigienik qoidalarning yetarlicha ommabop boʻlmaganida, koʻpchilikda “gigiena” soʻzi bilan bogʻliq boʻlgan barcha faktorga hissiy jalblik yoʻqligi katta rol oʻynaydi.

Ommaviy axborot vositalarining qudrati, sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda reklama imkoniyatlari jiddiy qoʻllanish kerak.

Ruhiy salomatlik, ichki va tashqi dunyo bilan uygʻunlik kamdan-kam hollarda tabiat tomonidan insonga tortiq qilinadi, aks hollarda buning uchun intilish va munosib mehnat talab qilinadi. Shaxsiy hayotga faol ijobiy munosabatsiz bunga erishish mumkin emas. Oʻz-oʻzini bilish, oʻzini boshqarish va shaxsiy rivojlanish

uchun motivatsiyaning yo‘qligi aleksitemiya – psixosomatik kasalliklarga moyillik uchun asos yaratadi.

Salomatlikka bo‘lgan munosabatning asosiy tarkibiy qismlari (kognitiv, xulq-atvoriy va hissiy)ni ko‘rib chiqamiz.

Salomatlikka bo‘lgan munosabatning kognitiv komponenti ijtimoiy va psixologik tabiatning ko‘plab omillari, shaxs o‘z holatini sog‘lom yoki og‘riqli deb bilishi va tushunishiga ta’sir o‘tkazadi. Eng muhim omillar sirasiga shaxsning psixologik kompetensiyasi ham kiradi. Bu, individ tegishli bo‘lgan jamiyat va etnik guruh psixologik madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq. Asosiy hayotiy qadriyat bo‘lmish salomatlikni mustahkamlashning shakllari va usullari – psixologik madaniyatda muhim o‘rinni ruhiy salomatlik egallaydi. Ijtimoiy-madaniy omillar nomuvofiqlik turini aniqlash va uning chuqurligini baholashga ta’sir qiladi. Turli xil psixologik va psixiatrik alomatlar jamiyat tomonidan har xil ma’qullanish darajasiga ega. Ushbu omillar tashxis qo‘yish jarayoniga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ruhiy kasalliklar paydo bo‘lishining sabablari va xususiyatlarini tushuntirishga milliy, diniy urf-odatlar va qarashlar, mifologiya, folklor va keng tarqalgan epik asarlar ta’sir o‘tkazadi. Ushbu etnik guruhda mavjud bo‘lgan afsona bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z-o‘ziga uqtirish (singdirish) mexanizmiga asoslangan etnik psixozlar mavjud.

Ruhiy kasalliklarga bo‘lgan munosabat psixiatriya an’analari, boshqa barcha gumanitar fanlarning psixiatriyaga ta’siri bilan bog‘liq. Masalan, Xitoy psixiatriyasida yaqin vaqtgacha ruhiy kasallik organik yoki fiziologik tabiatga ega ekanligi haqidagi talqinlar keng tarqalgan edi. Bu tanadagi energiya oqimlarining o‘zaro ta’siri asosida insonning psixofiziologik tabiati haqidagi an’anaviy tasavvurlarning ta’siri bilan bog‘liq. Energiya oqimlarining holati va ularning tashqi dunyo energiyasi bilan o‘zaro ta’sirining xususiyatlari ruhiy salomatlik yoki kasalliklarni belgilaydi. Shu bilan birga, depressiya kabi kasalliklarning ijtimoiy-psixologik sabablari yetarlicha baholanmagan. Nisbatan chuqur bo‘lmagan ruhiy kasalliklar (nevrozlar, vaziyatga oid va o‘tkir reaktiv holatlar) ham madaniy jihatdan taqozo qilinadi. Masalan, Osiyoning besh mamlakati (Indoneziya, Xitoy, Tailand, Tayvan, Yaponiya) aholisi o‘rtasida o‘tkazilgan o‘rganishlar natijasida, bir xil ruhiy kasalliklar uchun bir qator alomatlar (tashvish, asabiylashish, tushkunlik, qo‘rquv, bosh og‘rig‘i, ko‘krak qafasidagi og‘riqlar va boshqalar) o‘rtasida jiddiy farqlar aniqlangan [4; 186-b].

Salomatlik qadriyatlari, L.S.Dragunskaya so‘zlari bilan aytganda, “ma’lum” qadriyatlar bo‘lishi mumkin, ammo ular tan olinishi yoki qabul qilinishi va o‘zlashtirilishi shart emas. Ya’ni, inson ularga befarq munosabatda bo‘lishi mumkin, chunki ular uning asosiy muammolaridan yiroqdir [7; 138-b].

Salomatlik hayotning asosiy qadriyatlaridan biri bo‘lganligi sababli, ushbu qadriyatni anglash va qayg‘urish hayotning ma’nosini tushunish va his etish bilan bog‘liqdir. Inson tomonidan hayotning mazmunini qabul qilishda idrok etish yoki his qilish (biri ikkinchisini istisno qilmaydi) ustunlik qilishi mumkin, bu shaxsning xususiyatlari va ma’lum bir kishining dolzarb (aktual) hayotiy holatiga bog‘liq. Idrok etish yoki his qilishga urg‘u berish, ko‘proq yoki kamroq afzal ko‘rish nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilmasligi kerak, mazmun bo‘yicha tanlashda odam o‘z shaxsining yo‘naltiruvchi kuchiga ega bo‘lishi juda muhim, shunda uning hayotining ma’nosi yetarlicha ravshan bo‘ladi va u yo‘qolmaydi, degan ishonch hosil bo‘ladi.

Baxtni his qilish qobiliyati, hayotdan qoniqish, shaxsiy va oilaviy farovonlik, salomatlikning toʻliqligi va uni saqlash, shaxslararo munosabatlar, mikro va makro jamiyatlardagi iqlim va hokazolarga koʻp jihatdan bogʻliq boʻladi.

A.P.Osipov tadqiqoti jarayonida muayyan qadriyatlar tahlili asosida agar ular qondirilsa, inson hayotning toʻliqligini his qilish, oʻzini anglash va shaxsiy realizatsiya, uni muvaffaqiyatli (yoki muvaffaqiyatsiz) amalga oshirishga imkon beradigan qadriyatlar aniqlangan. Tadqiqot hayot mazmunini tushunish uchun quyidagi tushunchalar (qadriyatlar) eng muhim ekanligini koʻrsatgan: qalb, mehribonlik, bolalar, oila, muhabbat, salomatlik, vijdon, muloqot, doʻstlik.

Shaxs hayotining uchta asosiy yoʻnalishining har birida qolgan tushunchalar bilan koʻp jihatdan bogʻliq boʻlgan tushunchalar mavjud. Moddiy mavjudlik sohasi bilan bogʻliq boʻlganlar orasida "uy-joy" tushunchasi, ruhiy sohada – "suhbat" va "qalb", maʼnaviy sohada – "goʻzallik" va "iymon" tushunchalari markaziy oʻrinni egallaydi. Salomatlik tushunchasi uy-joy, boylik, pul, oziq-ovqat, lavozim singari tushunchalar bilan mustahkam bogʻliqligi aniqlandi. Ushbu tushunchalar guruhi "moddiy mavjudlik qadriyatlari" shartli nomini olgan.

Oʻrta yoshli odamlarning nisbatan kichik bir tanlanmasi orasida oʻtkazilgan hayotning maʼnosini tushunishni oʻrganish natijalari shuni koʻrsatdiki, quyidagi toʻrt guruh qadriyatlar inson uchun eng katta qadriyatga ega: "ruhiy hayot qadriyatlari", "moddiy hayot qadriyatlari", "maʼnaviy hayot qadriyatlari", "shaxsiy realizatsiya qadriyatlari".

Salomatlik – hayot maʼnosini tushuntiradigan asosiy tushuncha (qadriyat)lar sirasiga kiradi. Hayot maʼnosini tushunish jihatidan, salomatlik moddiy mavjudlik qadriyatlari bilan chambarchas bogʻliqdir.

Salomatlikni qadriyat yoʻnalishlari tuzilishida koʻrib chiqamiz.

Har bir inson hayot mazmunini, hayotdagi maqsadini oʻzicha belgilaydi. Hayot maʼnosi uning maqsadlari va shaxs tomonidan qabul qilingan asosiy hayot qadriyatlari bilan bogʻliq [5; 21-23 bb].

I.Dubrovina fikricha, psixologik salomatlik quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

– toʻliq aqliy rivojlanish va shaxs sifatida rivojlanish natijasida ruhiy salomatlik;

– oʻsib borayotgan shaxsning aqliy va shaxsiy rivojlanish xususiyatlari va ushbu xususiyatlardan xabardorligi;

– aqliy va shaxsiy xususiyatlar va fazilatlarga ongli munosabat;

– shaxs dunyoqarashining gumanistik yoʻnaltirilganligi [3].

Shunday qilib, salomatlikning ichki manzarasi – statistik sobit holat emas, balki shaxsning oʻz-oʻzini anglashdagi uning "men" va oʻz tanasi bilan boʻlgan muloqotini aks ettiruvchi dinamik modeli, shuningdek, inson salomatligi toʻgʻrisidagi bilimlar, gʻoyalar va tavsiflar toʻplami, ushbu toʻplamlar bilan bogʻliq boʻlgan hissiy qaygʻular, hissiyotlar va xulq-atvor reaksiyalari toʻplami, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

**Xulosalar**

1. Insonlarning oʻz sogʻligiga munosabatini oʻrganish, tadqiq qilish bugungi kundagi fan oldida turgan muhim vazifalardan biri ekanligi tasdiqlandi.

2.Talaba shaxsining valeologik ongga boʻlgan munosabatini rivojlantirish muammosi yuzasidan xilma-xil konsepsiyalar, nazariyalar, yoʻnalishlar, qarashlar,

yondashuvlar, turli jabhalar va jihatlar, mavjud boʻlishiga qaramasdan, psixolog olimlar barcha yoshdagi talabalarning valeologik ong darajalarini aniqlash boʻyicha toʻgʻri, muvofiq (ratsional, optimal) yoʻl-yoʻriqlar va samarali usullarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega boʻldilar.

3. Tadqiqotning mazkur bobida chet el psixologiyasida salomatlik muammosining nazariy tadqiqotlari xorij va Oʻzbekiston olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilindi. Talabalarning kasbiy shakllanishi jarayonida valeologik ongining rivojlanish xususiyatlari, imkoniyatlari va ularning psixologik mexanizmlari ilmiy jihatdan atroflicha ochib berildi.

4. Talabalarda valelogik ong rivojlanishini tadqiq etish, ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish bugungi kun talabidir. Barkamol avlod tarbiyasida, uning salomatligini oshirishda va kasbiy shakllanishida valeologik ongni rivojlanish komponentlarini chuqur oʻrganish va dinamik xususiyatlarini tahlil etish

**Adabiyotlar**


1. Avlaev O. U. Gender differences of social intelligence in student development. Scientific journal "Psychology". 2021. № Pages 1, 34-41.

2. Avlaev O., Butaeva U. Psychological determinant of personality development. Scientific-methodical journal of public education. 2021. № Pages 6, 87-92.

3. Baxtiyarovich T. S., Mirzaeva S. R. DEZADAPTATION OF ELEMENTARY STUDENTS //Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence. – 2023. – T. 2. – №. 4. – С. 173-175.

4. Дубровина И.В. Практическая психология в лабиринтах современного образования: Монография. – М.: МПСУ, 2014. – 464 с.

4. Зобов Р.А., Келасьев В.Н. Мифы нашего сознания // Россия сегодня: новые горизонты сознания / Под ред. В.Н.Келасьева. – СПб.: Питер, 2004. – 186 с.

5. Леонтьев Д.А. Очерк психологии личности. – М.: Изд-во МГППУ, 2003. – С. 21-23.

6. Rovshanova X.A., Avlaev O. U. Zaif eshituvchi oʻspirinlarning ijtimoiy intellekt dinamikasi. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2022 yil №9) 346 -353 b.

7. Rustamovna, Mirzayeva Sayyora. "SOCIO-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE MODERN UZBEK FAMILY." *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence* 2.4 (2023): 196-198.

8. Никифоров Г.С. Психология здоровья: Учебное пособие. – СПб.: СПбГУ, 2000. – С. 240-284.

9. Ядов В.А. О диспозиционной регуляции социального поведения личности // Методологические проблемы социальной психологии. М., Академия, 2005. – 138 с.

10. Мирзаева, Сайёра Рустамовна. "ТАЛАБАЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАСИ БЎЙИЧА ИЛМИЙ ЁНДАШУВ." *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)* 2.2 (2022): 307-313.

11. Равшанова, Ханифа Акмаловна. "ЭШИТИШДА НУҚСОНИ БЎЛГАН БОЛАЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ДИНАМИКАСИ." *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)* 2.2 (2022): 258-265.

12. OF I. R. X. I. C. PEDAGOGICAL EDUCATION IN XXI CENTURY: PROBLEM, SOLUTION AND RESULT //Journal of Critical Reviews. ISSN-2394-5125 Mirzayeva Sayyora Rustamovna. Psychological features of attitudes of students to their own health in conflict situations. journal of critical reviews. ISSN-2394-5125 VOL. – T. 7.

# MUNDARIJA


| | |
|---|---|
| **Muxamedov G.I.** Mustaqil ta'lim klasteri – inson farovonligining omili sifatida | 3 |
| **I SHO'BA. SHAXS FAROVONLIGINING PSIXOLOGIK JIHATLARI** | |
| **Ashurov Jahongir.** Representation of Human Rights in the Novels of Erle Stanley Gardner" | 7 |
| **Burxonova Mavjuda.** Zamonaviy oila farovonligining psixologik jihatlari | 10 |
| **Джурабаева Д. Э.** Психологические особенности субъективного благополучия женщин | 14 |
| **Eshnayev N.J.** Globallashuv sharoitida innovatsion ta'lim muhitini tashkl etish va uning mobilligini ta'minlash | 16 |
| **Mirzayeva S.R.** Shaxs farovonligiga salomatlikning psixologik ta'siri | 20 |
| **Мухамедова Д.Г.** Образование женщины как фактор психологического благополучия | 24 |
| **Мирзарахмонова Шахноза.** Психологические аспекты благополучия личности | 26 |
| **Ravshanova Xanifa.** Zaif eshituvchi o'quvchilar ijtimoiylashuvining o'ziga xosligi | 29 |
| **Rakhmanova D. U.** Cluster of development of intellectual and creative ability to ensure student well-being | 33 |
| **Raxmanova D.U.** Talabalar intellektual faoliyatini optimallashtirishning psixologik determinantlari | 36 |
| **Раупова Ш.А.** Плюсы и минусы телемедицины в психологическом консультировании | 39 |
| **Сабитова Тожихон.** Алишер Навоийнинг "Фарҳод ва Ширин" асарида аёллар тимсоли талқини | 42 |
| **Самиева Шахноз.** Важные тенденции развития человеческого капитала и мировоззрения молодежи | 47 |
| **Самарова Шохиста.** Психологические основы развития детерминантов личности будущего педагога | 49 |
| **Самарова Шохиста, Мирзаева Мавлуда.** Подходы к психологическим детерминантам профессионального развития педагога на этапе вузовского образования | 54 |
| **Туракулов Бури.** Эмоциолнальный интеллект-основа личнога блогополучия | 56 |
| **Тўрақулов Бўри**. Психолог тадқиқотчининг касбий юксалиши | 59 |

| | |
|---|---|
| **Тожибоев Марат.** Проблемы развития педагогического мышления студентов на основе индивидуальной образовательной траектории | 63 |
| **Халдаров Х. А.** Исследование качества дополнительно приобретенных знаний с учетом педагогика психологических состояний обучаемых | 66 |
| **Yuldasheva Saodat.** Talabalar kasbiy farovonligini prognozlash | 69 |
| **Yuldasheva Saodat. Zoxidova Aziza.** Oila farovonligi – shaxsning axloqiy mezoni sifatida | 73 |
| **Зуфаров Т. У.** Создание положительного эмоционального состояния у детей как основа их психологического благополучия | 75 |
| **II SHO'BA. INSON FAROVONLIGINING DEMOGRAFIK JIHATLARI** | |
| **Ablusamatova Shahlo, Maxamatqulov Zufar.** Proyektiv metodikalarning shaxsni o'rganish bo`yicha amaliyotdagi o'rini | 79 |
| **Абдусаматова Ш.С.** Самостоятельно - образовательный кластер как основной фактор благополучия человека | 82 |
| **Авлаев Ориф, Хасанова Зилола.** Ўқитувчи ва ўқувчилар муносабатлари психологияси | 86 |
| **Авлаев Ориф.** Шахснинг социал интеллект ривожланиш даражасига кўра типлари | 90 |
| **Акрамова Гулбахор.** Роль критического мышления в приобщении учащихся к общественным отношениям | 93 |
| **Атоев Хусниддин, Омонова Гульчехра.** Психологические основы организatsiи межличностных отношений в инклюзивной образовательной среде | 98 |
| **Абдунабиев Б.А.** Развитие личности на основе учений аль-Фараби | 103 |
| **Атаханов Х.К.** Кластерный подход в физическом воспитании как инновационная форма формирования системы подготовки спортивного резерва | 105 |
| **Буриева Кибрио. Сулейманова Аружан.** Этический компонент в образовании и его значимость | 107 |
| **Буриева Кибрио.** Психологические методы повышения мотиватsiи учащихся к чтению | 110 |
| **Буртешова Алия.** Влияние художественного образования на психологическое благополучие студентов вузов | 114 |
| **Джумаева Феруза.** Роль правовой культуры в обеспечении благополучия человека | 119 |
| **Djumanazarova Ziyada.** Overview of the article (multimedia materials in developing countries: the malaysian experience) by Jayakaran Mukundan | 121 |

| | |
|---|---|
| **Eshnayev Nortoji, Madgapilova Nargiza.** Characteristics of implementing the cluster approach in the educational system | 123 |
| **Мейлиева Мутабар, Эргашева Мазлума.** Изучение профессиональных интересов и способностей подростков | 126 |
| **Mirahmedova Shohida**. Ma'naviy makon: imkoniyat va istiqbollar | 130 |
| **Мирзаева Сайёра.** Социально-психологические основы - имидж современной узбекской семьи | 136 |
| **Мирзаева Шахло.** Исследование взаимосвязи эмоционального интеллекта и профессиональной компетентности студентов | 139 |
| **Mirqosimova Xulkar, Ho'sinova Saodat.** Boshlang'ich sinf o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining psixologik xususiyatlari | 143 |
| **Turakulov Buri.** Analysis of psychological theory intelligent | 146 |
| **Мейлиева Мутабар.** Психологическая компетентность педагогов | 151 |
| **Миркосимова Хулкар.** Когнитивные процессы с психологической точки зрения | 155 |
| **Yo`ldasheva Maftuna.** Stress psixologik fenomen sifatida | 159 |
| **Чориев Илхом.** Формирование педагогической стратегии в условиях модернизации высшего образования | 162 |
| **Таджибаева Рухшон.** Глобаллашув жараёнида ёшларда мафкуравий иммунитетни кучайтириш зарурияти | 167 |
| **Tuganova Luiza.** Sun`iy intellekt kecha va bugun | 170 |
| **Qundizaliyeva Safiya.** Hozirgi kunda O'zbekistonda bo'layotgan o'zgarishlar va media ta'limga qaratilgan e'tiborning zamonaviy ta'limdagi ahamiyati | 172 |
| **Раджабова Зухра.** Социально-психологические детерминанты успешного выбора карьеры | 178 |
| **Raxmanov Mufazzalshoh.** Fizika o'qituvchisining individual trayektoriyasini loyihalash yuqori malakali o'qituvchini shakllantirish omili sifatida | 182 |
| **Yuldasheva Saodat, Hayitboeva Xushruza**. Talabaning shaxsiy salohiyati psixologik-pedagogik kategoriya sifatida | 184 |
| **III SHO'BA. INSON FAROVONLIGI: IJTIMOIY-MADANIY JIHAT** | |
| **Абдалова Сайяра, Абдикеримова Мадина, Атабоева Муяссар.** Руководство образовательного учреждения | 188 |
| **Аллаёрова Сарвиноз. Мирсодикова Райхона.** Дидактические возможности интеграtsiи в повышении эффективности образования | 191 |
| **Allayorova Sarvinoz. Ravshanova Feruzabonu.** Mutafakkirlarimizning ilmiy asarlarida fanlararo yondashuv | 195 |
| **Allayorova Sarvinoz.** Ta'limda klaster yondashuvning nazariy va metodologik asoslari pedagogik innovatsiyalar asosi sifatida | 198 |
| **Atabayeva Iroda.** Comparative indicators of the prevalence of cyberbullying among teenagers in russia and Uzbekistan | 201 |

| | |
|---|---|
| **Mirzaraxmonova Shaxnoza. Abdullayeva O'g'iloy.** Erta turmush qurishning salbiy oqibatlari | 203 |
| **Аржаев Федор, Турко Владимир.** Генезис бедности в Южной Азии | 207 |
| **Барышев А.А., Кашпур В.В., Масалимова А.Д.** Двойная двойственность практик благополучия | 209 |
| **Гридина Т.А., Коновалова Н.И.** Ассоциативные доминанты ценностной категории «благополучие» в эргономинатsiях | 213 |
| **Евстифеева Г.Г.** Социальное благополучие: проблемы и ожидания населения Российского региона (на примере Владимирской области) | 216 |
| **Кузнецова Н.Ю., У.А. Жаркова.** Самоидентификатsiя личности мигранта в контексте концептуализатsiи благополучия | 219 |
| **Мирзаакбаров Б.Т.** Огоҳлик ва ҳушёрлик - барқарорлик, тараққиёт кафолати | 223 |
| **Mullajonov I.Y.** Mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirishda innovatsion korporativ hamkorlikni rivojlantirishning o'rni va ahamiyati | 228 |
| **Муқумова Д.И., Темирова З.И.** «Повышение креативности студентов профессионального образования на основе педагогических технологий» | 233 |
| **Исмоилова Дилафруз**. Тарбия иши педагогларини тайёрлаш механизмларини такомиллаштириш | 237 |
| **Химматалиев Д.О., Г.Эшбекова, М.Файзуллаева.** Технология самостоятельного обучения и потребности | 240 |
| **Каримов Р.Р.** Структура формирования творческих компетентностей учащихся | 244 |
| **Петровская Ю.А.** Факторы формирования и благополучия инновационного человека в российском обществе | 247 |
| **Nazarov Abdulla. U**mumta'lim maktablarida voleybolchilarni tayorlashning ilmiy asoslari | 249 |
| **Рамазонов Нуршод, Атабаева Ирода. С**равнительные показатели распространенности кибербуллинга среди подростков России и Узбекистана | 252 |
| **Safarov Muxlis**. Zamonaviy ta'lim klasterini yoshlar siyosiy ongi va madaniyatiga ta'sirining futurologik tahlili | 254 |
| **Tursunov Abdumo'min.** Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani bo'yicha o'quv jarayonini tashkil qilish | 257 |
| **Руколеева Р.Т.** Социокультурные основания эволюции роли женщины в современности | 259 |
| **Старшинова А. В.** Развитие общественного благосостояния как фактор социального благополучия граждан в Узбекистане | 262 |
| **Старшинова А. В., Атабаева И. Б.** Трансформатsiя системы социального обслуживания в Узбекистане как фактор благополучия семей с детьми, детей и женщин | 265 |
| **Сунь Т.** Понятия благополучие и терпение в русской лингвокультуре: зоны пересечения смыслов | 268 |

| | |
|---|---|
| **С. Ткач, А.В. Рязанцева, О**браз будущего как элемент благополучия подростка | 271 |
| **Тоштемирова Саодат.** Бағрикенглик феноменининг этнопсихологик таснифи | 274 |
| **Turdiev U.Sh. T**alimda klasterni qo'llash zamon talabi | 278 |
| **Haydarova Zilola. T**he need to use modern information technologies in the field of education | 280 |
| **Химматалиев Д.О., Каримов Р.Р. С**овершенствование функционировании научно-образовательных кластеров | 284 |
| **Ходжамқулов Умид.** Ёшларнинг маънавий-ахлоқий тарбиясини ахборот хуружларидан ҳимоя қилиш ва унинг шартлари | 287 |
| **Xalmatova D.A., Inomova Z.I. T**alabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish (oliy o'quv yurtlari pedagogikasi misolida)" | 289 |
| **Xalmatova D.A.** Aralash ta'limning pedagogik va psixologik asoslari | 293 |
| **Khalmatova D.A**. Pedagogical and psychological foundations of mixed education | 297 |
| **Элмурзаева Насиба.** Образования и воспитания в педагогической психологии к изучению благополучия человека | 300 |
| **Эрназарова Мунисхан. К**ачественные знания – основа благополучия человека | 304 |
| **Ernazarova Munishkhan. U**sing didactic games to improve the intellectual abilities of primary school students | 307 |



**Nashriyot litsenziyasi № 2044, 25.08.2020 y.**
**"Times new roman" garniturasi, kegli 14. Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog`i 35,9.**
**Adadi 100 dona. Buyurtma №101**

**Zebo prints MCHJda chop etildi.**
**Manzil: Toshkent shahar, Yashnobod tumani 58-A harbiy shahrcha.**
**Tel.: 94 673 66 56**
**E.mail: kmamadaliyev@mail.ru**